



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi
tarbiyalanuvchilaridan iborat guruhni Rossiya Federatsiyasining
Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tadigan V xalqaro munitsipal Forumi
doirasida sport-madaniy Kongressga yuborish to‘g‘risida

Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahridagi “Dobrodushiye” bolalarga yordam ko‘rsatish xayriya fondi tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar o‘rtasida BRICS+ mamlakatlarning V xalqaro munitsipal Forumi doirasida 2023-yil 7-13-noyabr kunlari o‘tkaziladigan sport-madaniy Kongressda A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ishtirokini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri o‘rinbosari D.Kenjayeving 2023-yil 27-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida “Dobrodushiye” bolalarga yordam ko‘rsatish xayriya fondi tomonidan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar o‘rtasida BRICS+ mamlakatlarning V xalqaro munitsipal Forumi doirasida joriy yilning 7-13-noyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan sport-madaniy Kongressda (keyingi o‘rinlarda - Kongress) A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risidagi bildirishnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida joriy yilning 7-13-noyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan sport-madaniy Kongressda ishtirok etadigan guruh a‘zolari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Sport-madaniy Kongressda ishtirok etish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi direktori (D.Djurayeva) Kongressda ishtirok etishi belgilangan guruh a‘zolarini sport-madaniy Kongressga yuborilishini ta‘minlasin.

4. Kongressga yuboriladigan guruh a‘zolarining xalqaro aviachipta bilan bog‘liq xarajatlari Maktabgacha va maktab ta‘limi tizimiga respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan A.P. Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyining xarajatlar smetasiga o‘tkazib berilishi inobatga olinsin.

5. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxassisi A.Abdug'aniyevning xizmat safari bilan bog'liq sarf-xarajatlari vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag'lari doirasida amalga oshirilsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari D.Kenjayeov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

X.Umarova



Toshkent sh.,
2023-yil 30 - oktabr,
510 -son

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil 30 - oktabrdagi
510-son buyrug'iga
1-ILOVA

**Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida joriy yilning
7-13-noyabr kunlari bo'lib o'tadigan sport-madaniy Kongressda ishtirok etadigan
guruh a'zolari
RO'YXATI**

T/r	F.I.SH.	Lavozimi	Izoh
1.	Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi yetakchi mutaxassisi	Guruh rahbari
2.	Mannopov Abdulaziz Abduaxad o'g'li	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyachisi	Murabbiy
3.	Masharipov Timur Soburovich	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyachisi	Murabbiy
4.	Abduraximov Abdullox Jamshid o'g'li	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi
5.	Azamov Javoxir Azizovich	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi
6.	Pardayev Kamronbek Farhod o'g'li	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi
7.	Omanboyev Xasan Jaxongirovich	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi
8.	Boltayev Sherzod Mo'minovich	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi

9.	Andreyev Bogdan Eldarovich	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi
10.	Nazirov Jafar Nayimbek o'g'li	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi
11.	Axmadvov Kamoliddin Bekzod o'g'li	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi
12.	Omanboyev Xusan Jaxongirovich	A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi	Ishtirokchi

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil 30 - oktabr dagi
370 -son buyrug'iga
2-ILOVA

Sport-madaniy Kongressda ishtirok etish bilan bog'liq sarf- xarajatlar
SMETASI*

T/r	Xarajat turi	Miqdor	Kun	Valyuta shakli	1 kishiga	Summa	Jami summa (so'm)
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining markazlashgan tadbirlar xarajatlar smetasi mablag'lari hisobidan							
1	Ekonom tarifdagi aviachipta: Toshkent- Sankt-Peterburg-Toshkent	1	-	UZS	6 000 000	6 000 000	6 000 000
Jami							6 000 000,00
T/r	Xarajat turi	Miqdor	Kun	Valyuta shakli	1 kishiga	Summa	Jami summa (so'm)
Maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan (A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehrixonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun)							
1	Ekonom tarifdagi aviachipta: Toshkent- Sankt-Peterburg-Toshkent	11	-	UZS	6 000 000	66 000 000	66 000 000
Jami							66 000 000,00
Umumiy xarajatlar miqdori						72 000 000	72 000 000,00

Markaziy bankning so'mga nisbatan valyuta kurslari: 30.10.2023

AQSh dollari - USD - UZS	USD	1	UZS	12260
--------------------------	-----	---	-----	-------

*Narxlar 2023-yil 30-oktabr holatiga hisoblangan bo'lib, haqiqiy xarajatlar xarid kunidagi narxga ko'ra aniqlanadi.

Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi



J.Mannonov

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta'limni
rivojlantirish bo'limi boshlig'i

R.To'rayev

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri
X.U. Umarovaga

Hurmatli Xilola Uktamovna,

Vazirlikka Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg shahridagi "Dobrodushiye" bolalarga yordam ko'rsatish xayriya jamg'armasi 2023-yil 25-sentabrdagi 20230925-03-sonli xat orqali **2023-yilning 7-13-noyabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tadigan V (beshinchi) Xalqaro futbol musobaqasida** ishtirok etish uchun Toshkent shahridagi **A.P. Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari** taklif etgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2023-yil 18-oktabrdagi 12/-40941-sonli xatida mazkur musobaqada futbol jamoasining ishtirok etish yuzasidan e'tirozi yo'qligi ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumot uchun: A.P. Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari futbol jamoasi 2022-yilda Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan XVIII Xalqaro futbol turnirida birinchi o'rinni hamda 2023-yilda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi o'tkazilgan futbol bo'yicha VIII Jahon chempionatida ikkinchi o'rinni egallagan.


Yuqorida ko'rsatilgan taklif xatida "Dobrodushiye" bolalarga yordam ko'rsatish xayriya jamg'armasi ishtirokchilarning turar-joy, ovqatlanish va madaniy-ko'ngilochar dasturi **sarf-xarajatlari taklif etuvchi tomonidan**, borish-kelish uchun xalqaro aviachiptalar **yuboruvchi hisobidan** qoplanishi bildirilgan bo'lib, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 12 kishining (9 nafar tarbiyalanuvchi, 2 nafar murabbiy, 1 nafar kuzatuvchi) Sankt-Peterburg shahriga borish-kelish aviachiptalari xarajatlariga **72 mln. so'm** mablag' zarurligi ma'lum bo'ldi (ilova qilinadi).

Shu munosabat bilan, Rossiya Federatsiyasiga rejalashtirilgan xorijiy xizmat safarini amalga oshirishga hamda tegishli mablag'lar ajratishga rozilik berishingizni so'rayman.

Siz tomondan rozilik berilgan taqdirda xizmat safari bo'yicha buyruq loyihasi tayyorlanib, A.P. Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyining xarajatlar smetasiga qo'shimcha mablag'lar ajratiladi.

Ilova: _ varaqda.

Qaroringiz uchun kiritilmoqda.



(Handwritten signatures and initials)

(Handwritten signature)
D. Kenjayev
27.10.2023-yil

(Handwritten signatures and initials)

Ташкент (TAS), Узбекистан → Санкт-Петербург (LED), Россия

06	07	08	09	10	11	12
Новembre	Новembre	Новembre	Новembre	Новembre	Новembre	Новembre
от 2 434 994	от 2 653 890	от 2 434 994	от 2 434 994	от 2 434 994	от 2 434 994	от 2 434 994

Санкт-Петербург (LED), Россия → Ташкент (TAS), Узбекистан

13	14	15	16	17	18	19
Новembre	Новembre	Новembre	Новembre	Новembre	Новembre	Новembre
от 3 257 431	от 3 257 431	от 3 257 431	от 3 257 431	от 3 257 431	от 3 257 431	от 3 257 431

Количество пассажиров

Взрослый

NY 631 Ташкент → Санкт-Петербург

18:40 07 Ноябрь

NY 631 Санкт-Петербург → Ташкент

13:15 13 Ноябрь

Выбор времени вылета на 07 Ноябрь: 18:40

Выбор времени вылета на 13 Ноябрь: 13:15

Выберите тариф

Бизнес

Экономический

Экономический

Экономический

Ручная кладь 10кг.

2 багажных места, не более 32кг., и 158 см. по сумме трех измерений;

Есть переоформление

Бизнес

Экономический

Экономический

Экономический

Ручная кладь 10кг.

2 багажных места, не более 32кг., и 158 см. по сумме трех измерений;

Есть переоформление

С возвратом

15 053 822

8 435 173

5 872 700

5 370 506

Перейти к оформлению

Штрафы



«МЫ - МИР!»
Санкт-Петербург. 8-12 ноября 2023 г.



**НАРОДНЫЙ
ФРОНТ**



Исх. № 20230925-03
от 25 сентября 2023 г.

Министру дошкольного и школьного
образования Республики Узбекистан
Умаровой Х.У.

Уважаемая Хилола Уктамовна!

С 7 по 13 ноября 2023 года в Санкт-Петербурге пройдет V международный муниципальный Форум стран БРИКС+. В рамках Форума запланировано проведение международного спортивно-культурного Конгресса для детей-сирот из социальных центров, представляющих страны, участвующие в Форуме БРИКС+.

Организатор Конгресса для детей-сирот – Благотворительный фонд помощи детям «Добродушие», при поддержке Законодательного Собрания Санкт-Петербурга и Правительства Санкт-Петербурга.

В программу Конгресса войдут:

- турнир по футболу, в рамках которого будут проводиться просмотры участников Конгресса скаутской службой футбольного клуба «Зенит» (Санкт-Петербург);
- мастер-класс по катанию на коньках;
- мастер-класс по самбо;
- мастер-класс по боксу;
- показательная сдача норм ГТО (комплекс дисциплин, нацеленный на определение уровня спортивной подготовки детей);
- посещение крупного спортивного мероприятия – игра ХК «СКА»;
- обзорная экскурсия по Санкт-Петербургу;
- посещение экспозиции «Россия – моя история»;
- проведение семинара «Международный обмен опытом в вопросе социальной политики и развития спорта» и встреча с Председателем Законодательного Собрания Санкт-Петербурга, А.Н. Бельским для руководителей команд и участников Форума БРИКС+;
- проведение товарищеского матча по футболу между сборной Правительства Санкт-Петербурга и представителями Форума БРИКС+.

Приглашаем команду дома милосердия №22 им. Хлебушкиной из Республики Узбекистан в количестве до 9 игроков 2011-2012 г.р., а также трех взрослых сопровождающих, принять участие в Конгрессе для детей-сирот. Оргкомитет соревнований обязуется обеспечить проживание, питание делегации, логистические расходы, предоставить спортивную игровую форму для команды, организовать насыщенную культурную и развлекательную программу во время визита в Санкт-Петербург. Расходы по прибытию в Санкт-Петербург и обратно ложатся на командирующие организации.

В случае положительного решения об участии детского коллектива из Республики Узбекистан в Конгрессе для детей-сирот просим направить контактные данные исполнителя, ответственного за подготовку и реализацию визита.

Приложением к данному письму направляем презентацию Конгресса для детей-сирот.

**Международный спортивно-культурный Конгресс
для социальных центров в рамках
V Международного Муниципального Форума стран БРИКС+**



«МЫ - МИР!»

Санкт-Петербург. 8-12 ноября 2023 г.



НАРОДНЫЙ
ФРОНТ



Контактные данные Оргкомитета Конгресса:

Екатерина МАШКОВА – глава Оргкомитета,
тел.: +7 (921) 788-00-00
почта: kate_kiselqof@mail.ru

Дмитрий ФОМИНЫХ – член Оргкомитета,
тел.: +7 (921) 977-19-67
почта: df@futbolistov.net

Президент БФ помощи детям «Добродушие»
Руководитель регионального исполкома
ОНФ в Санкт-Петербурге

Е.В. Машкова

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI**

100066, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 45a
Tel.: (998-71) 239-46-35



**MINISTRY OF FOREIGN AFFAIRS
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

45a, Islam Karimov, Tashkent, 100066
Tel.: (998-71) 239-46-35

№ 12/40941 « 18 » 10 2023y.

**Ўзбекистон Республикаси
Мақтабгача ва мақтаб
таълими вазирилиги**

2023 йил 4-октябрдаги 06-01/7-2414-сонли хатга жавобан

Жорий йил 7-13 ноябрь кунлари бўлиб ўтадиган V Халқаро футбол турнирида Меҳрибонлик уйининг 11-12 ёшли ўғил бола тарбияланувчиларидан ташкил этиладиган терма жамоасини иштирок этиш масаласи белгиланган тартибда келишилган тақдирда, ТИВ эътирози мавжуд эмаслигини маълум қилади.

Шунингдек, тадбир якунлари бўйича батафсил маълумотни вазириликка йўллашингизни сўраймиз.

Мурожаатга биноан юборилмоқда.

Вазир ўринбосари

A handwritten signature in blue ink, consisting of stylized letters 'B' and 'U'.

Б.Усманов